

BOYSUN TUMANIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINING RIVOJLANISH HOLATI VA ISTE'MOL BOZORI

Xudoyberdiyev Diyorbek Norqobil o'g'li - Termiz davlat universiteti Geografiya
kafedrası o'qituvchisi

O'zbekov Daler Oybek o'g'li - Termiz davlat universiteti Geografiya ta'lim
yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Qo'zimurodova Aziza Azamat qizi - Termiz davlat universiteti Geografiya ta'lim
yo'nalishi 2-bosqich talabasi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Boysun tumanida xizmat ko'rsatish sohasining hozirgi holati, asosiy ko'rsatkichlari va tarmoqlar kesimidagi tahlil berilgan.*

***Kalit so'zlar:** ijtimoiy infrastruktura, maishiy xizmat ko'rsatish, savdo, turizm, transport, chakana savdo, logistika, yakka tartibdagi tadbirkorlar (YaTT).*

***Аннотация:** В данной статье рассматривается текущее состояние сферы услуг в Бойсунском районе, представлены основные показатели и анализ по секторам.*

***Ключевые слова:** социальная инфраструктура, бытовое обслуживание, торговля, туризм, транспорт, розничная торговля, логистика, индивидуальные предприниматели (ИП).*

THE STATE OF DEVELOPMENT OF THE SERVICE SECTOR AND THE CONSUMER MARKET IN BOYSUN DISTRICT.

Xudoyberdiyev Diyorbek Norqobil o'g'li - Teacher at Termez State University,
Department of Geography

Ozbekov Daler Oybek o'g'li - 2nd-year student in Geography education at
Termez State University

Qo'zimurodova Aziza Azamat qizi - 2nd-year student in Geography education at
Termez State University

Annotation: *This article explores the current state of the service sector in Boysun district, presenting key indicators and a sectoral analysis.*

Keywords: *social infrastructure, household services, trade, tourism, transport, retail trade, logistics, individual entrepreneurs (IE).*

Kirish. Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasi har bir davlatning iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Bu soha jamiyatda zamonaviy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish bilan birga, bandlikni ta'minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, ichki bozorda faol iqtisodiy muhit yaratishda ham beqiyos ahamiyatga ega. Xizmat ko'rsatish sohasi deganda – ishlab chiqarish jarayonida moddiy mahsulotlar yaratilmaydigan, biroq ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladigan faoliyatlar majmui tushuniladi. Ushbu maqolada Boysunda xizmat ko'rsatish sohalari rivojlanishining hozirgi holati, muammolar va istiqbollar tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tahliliy-statistik va strukturaviy yondashuv usullari qo'llanildi. Xizmat ko'rsatish sohasining asosiy ko'rsatkichlari 2023–2024-yil statistik ma'lumotlari asosida tahlil qilindi. Hududiy taqqoslash orqali Boysun tumanining boshqa hududlar bilan farqlari aniqlandi. Mavjud muammolar va istiqbolli yo'nalishlar ekspert baholari asosida belgilandi.

Tahlil va natijalar. Xizmat ko'rsatish sohasi bozor iqtisodiyoti sharoitida nafaqat ishlab chiqarish tarmoqlarining samarali faoliyat ko'rsatishiga yordam beradi, balki aholining turmush darajasini oshirish, infratuzilmani rivojlantirish va bandlikni ta'minlashda ham muhim o'rin tutadi. So'nggi yillarda O'zbekiston hukumati tomonidan xizmat ko'rsatish sohasiga alohida e'tibor qaratilib, ularni qo'llab-quvvatlash, qulay biznes muhiti yaratish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda[4].

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, xizmatlar sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi yildan-yilga ortib bormoqda. Bu esa uni strategik tarmoq sifatida baholash zarurligini ko'rsatadi.


2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, tumanda xizmat ko'rsatish sohasida jami umumiy 1 332 ta korxona faoliyat yuritmoqda. Ularning 266 tasi yirik, 1 066 tasi kichik va mikrofirmalardir. Shuningdek, 2 ta xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar ham mavjud. Yangi tashkil etilgan xizmat ko'rsatish korxonalari soni 174 tani tashkil qilib, 2023-yilga nisbatan 84 taga kamaygan.

1-jadval. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarida ishlab chiqarish. (2024-yil yanvar-dekabr)

	Mrd so'm	O'sish sur'ati, % da	Jami hajimga nisbatan ulushi, % da
Xizmatlar – jami	587,1	111,7	100,0
<i>shu jumladan asosiy turlari bo'yicha:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	36,4	111,1	6,2
moliyaviy xizmatlar	63,1	106,4	10,8
transport xizmatlari	115,7	106,6	19,7
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	109,8	117,4	18,7
yashash va ovqatlanish xizmatlari	21,9	112,4	3,7
savdo xizmatlari	228,8	114,2	39,0
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	17,9	113,3	3,1
ta'lim sohasidagi xizmatlar	11,3	123,6	1,9
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	18,2	110,7	3,1
ijara xizmatlari	14,9	109,1	2,5
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	20,1	111,9	3,4
shaxsiy xizmatlar	26,1	112,2	4,4
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	3,6	100,7	0,6
boshqa xizmatlar	9,1	115,9	1,5

Tuman xizmat ko'rsatish yo'nalishlari ichida savdo sohasining ulushi eng yuqori bo'lib, 39% ni tashkil qilmoqda. Shundan so'ng transport xizmatlari (19,7%), ayniqsa avtotransport xizmatlari (18,7%) yetakchi o'rinlarni egallaydi. Aksincha, muhandislik va me'morchilik izlanishlari kabi sohalarning ulushi 1%

dan kam bo'lib, bu yo'nalishlarda salohiyatdan to'liq foydalanilmayotganini bildiradi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari va takibi. (2024-yil yanvar-dekabr, % da)

Shu bilan birga, boshqa xizmat yo'nalishlari, xususan, axborot texnologiyalari, reklama, turizm, dam olish va sport xizmatlari Boysunda yetarlicha rivojlanmagan.

Chakana savdo – xizmatlar sektorining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, Boysunda 170 ta chakana savdo korxonalari faoliyat yuritmoqda. Shundan 4 tasi yirik korxona, 166 tasi esa kichik va mikro korxonalaridir. Bundan tashqari, yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT) va jismoniy shaxslar ham tuman chakana savdo sektorida faol ishtirok etishmoqda.

2024-yil davomida chakana savdo aylanmasi 966,7 milliard so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 8,7% ga o'sgan. Bu o'sishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi yuqori bo'lib, 678,1 milliard so'm yoki umumiy hajmning 70,1% ni tashkil etdi. Uyushmagan savdo sektori esa 283,1 milliard so'mlik aylanma bilan umumiy savdoning 29,3% ini tashkil qildi.

2024-yilda Surxondaryo viloyatining hududlari bo'yicha aholi jon-boshiga xizmatlar hajmi reytingida Boysun tumani 10-o'rinni egallagan. Hududlar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik yo'nalishida esa tuman 14-o'rinni band qilgan, ya'ni, faqatgina Bandixon tumanidan oldinda turgan.

Boysun tumanida xizmatlar sohasi izchil rivojlanib borayotganiga qaramasdan, bir qancha muammolar mavjud: hududiy nomutanosiblik – xizmatlar asosan markaziy hududlarda to‘plangan, chekka qishloq joylarda esa xizmatlardan foydalanish imkoniyati past; infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi – ayniqsa, axborot texnologiyalari va logistik xizmatlarda zamonaviy infratuzilma yetishmaydi; malakali kadrlar yetishmovchiligi – ayrim yo‘nalishlarda malakali mutaxassislar yetarli emas; xususiy sektorning cheklanganligi – ayrim sohalarda davlatga qaramlik yuqori bo‘lib, xususiy tadbirkorlar uchun raqobat muhiti to‘liq shakllanmagan; investitsiya muhitining sustligi – xorijiy sarmoyalarni jalb qilish darajasi past bo‘lib, bu xizmatlarning diversifikatsiyasini sekinlashtirmoqda.

Xulosa. Boysun tumanida xizmatlar sohasi iqtisodiyotning barqaror rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Savdo, transport va maishiy xizmatlar tuman iqtisodiyotida yetakchi o‘rin egallagan. Shu bilan birga, muhandislik, axborot texnologiyalari, moliyaviy xizmatlar va boshqa zamonaviy yo‘nalishlarda hali to‘liq salohiyatga erishilmagan. Mazkur muammolarni hal etish, xizmat sohasini raqobatbardosh va zamonaviy shaklga keltirish orqali Boysun tumani aholisi farovonligini oshirish, iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini yanada jadallashtirish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” – T.: Adolat, 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” - T.: Adolat, 2022.
3. Niyozova, I. (2023). Mamlakatimizda korxonalarning tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish va boshqarish. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 39(39).
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi

Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi. “Surxondaryo viloyatining statistik axborotnomasi” 2024-yil yanvar – dekabr hisobida. – Termiz – 2025.

5. Surxondaryo viloyati hokimligi rasmiy sayti: ”Boysun tumani ijtimoiy-iqtisodiyoti axborotnomasi”, 2024-yil. www.surxon.uz

6. Boysun tumani hokimligi rasmiy axborot portal - www.boysun.uz